
Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

O'QUVCHILARDA MILLATLARARO TOTUVLIK G'OYASINI QARDOSH XALQLAR MUSIQA SAN'ATI NAMUNALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-METODIK TA'MINOTI

O'tamurodova Anora Rasulovna



Annotatsiya. Ushbu tezisda ta'lim muassasalarida o'quvchilarda millatlararo totuvlik g'oyasini qardosh xalqlar musiqa san'ati namunalari asosida shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy-metodik asoslari tadqiq etildi. Tadqiqot davomida musiqa ta'limi jarayonida millatlararo totuvlik kompetensiyasini shakllantirishning uch bosqichli pedagogik modeli taklif etilgan. U "qiyosiy tinglash - mazmuniy tahlil - ijodiy interpretatsiya" tamoyiliga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy yangiligi sifatida qardosh xalqlar musiqa asarlarini o'zaro qiyoslash orqali umummadaniy qadriyatlar birligini anglatuvchi "intermusikal muloqot" metodikasi va uni baholash uchun mo'ljallangan diagnostik mezonlar tizimi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan model va mezonlar tizimining amaliy samaradorligini tekshirish uchun tajriba-sinov dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, uning natijalari kelgusi tadqiqot bosqichida empirik tasdiqlanishi lozim.

Kalit so‘zlar: Millatlararo totuvlik, qardosh xalqlar musiqa san'ati, pedagogik-metodik ta'minot, musiqiy tarbiya, intermusikal muloqot, bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, komparativ tinglash metodikasi, madaniyatlararo kompetensiya, ijodiy interpretatsiya.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari sharoitida yosh avlodni millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Mustaqillik yillarida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, jumladan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va ta'lim sohasini isloh qilish konsepsiyalarida o'quvchilarda milliy g'urur bilan bir qatorda boshqa

xalqlar madaniyatiga hurmat tuyg'usini shakllantirish vazifasi alohida ta'kidlangan. Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari asrlar davomida umumiy tarixiy taqdir, hududiy yaqinlik va madaniy aloqalar zaminida rivojlanib kelgan bo'lib, ularning musiqa san'ati bu yaqinlikning eng ta'sirchan ifodasi hisoblanadi.

Mavzu so'nggi yillarda o'zbek pedagogika fanida ham diqqat markazida turibdi. Xususan, B.R.Boltayevning tadqiqotida boshlang'ich sinf musiqa darslarida millatlararo totuvlik g'oyalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan [2], U.O.Ergasheva esa o'quvchilarda millatlararo totuvlik hissini shakllantirishda tarixiy merosdan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan [3]. Ushbu ishlar mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi, biroq ularda asosan umumiy pedagogik-tarbiyaviy jihatlar yoritilgan bo'lib, qardosh xalqlar musiqa san'ati namunalarini bosqichma-bosqich, aniq metodik tizim va diagnostik mezonlar asosida o'quv jarayoniga tatbiq etish masalasi alohida, chuqur tadqiqot ob'ekti sifatida to'liq yoritilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tezisning dolzarbligini belgilaydi. Musiqa san'ati o'zining emotsional-obrazli tabiati tufayli o'quvchi shaxsiga bevosita, og'zaki tushuntirishlarga qaraganda chuqurroq ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega. Qardosh xalqlarning maqom, dutor, dombira, qo'biz, komuz kabi an'anaviy cholg'ularda ijro etiladigan asarlari, xalq qo'shiqlari va baxshichilik san'ati namunalarini qiyosiy o'rganish o'quvchida "boshqa" madaniyatni "begona" emas, balki "qarindosh" sifatida idrok etish imkonini beradi. Ammo amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablari va musiqa ta'limi muassasalarining amaldagi dastur va darsliklarida qardosh xalqlar musiqa merosidan foydalanish tizimli, maqsadli va metodik jihatdan izchil tarzda yo'lga qo'yilmagan. Ko'pincha bu material epizodik, tasodifiy xarakterga ega bo'lib, uning pedagogik salohiyati to'liq ro'yobga chiqarilmayapti.


Tadqiqotning maqsadi umumta'lim va musiqa ta'limi tizimida o'quvchilarda millatlararo totuvlik g'oyasini qardosh xalqlar musiqa san'ati namunalari asosida shakllantirishning nazariy jihatdan asoslangan pedagogik modeli va amaliy metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini tekshirish uchun tajriba-sinov dasturini loyihalashtirishdan iborat.

Asosiy qism. Millatlararo totuvlik tushunchasi pedagogik adabiyotda ko'p qirrali hodisa sifatida talqin etiladi va u shaxsning boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat, o'zaro tushunish, hamkorlikka tayyorlik va madaniy xilma-xillikni qadriyat sifatida qabul qilish kabi sifatlar majmuini o'z ichiga oladi [4].

Qardosh xalqlar musiqa san'atining o'zaro yaqinligi ularning tovush tizimi ritmik-intonatsion xususiyatlari, hamda mavzu-obrazlar olamidagi mushtaraklikda namoyon bo'ladi [5, 128–129-b.], bu esa ularni qiyosiy o'rganish uchun boy pedagogik zamin yaratadi.

Tadqiqot doirasida musiqa materialini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun quyidagi tanlov mezonlari ishlab chiqildi:

- Badiiy-estetik qiymat,
- Pedagogik maqsadga muvofiqlik,
- Mushtaraklik mezoni,
- Tarbiyaviy salohiyat



Ushbu mezonlar asosida o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman xalq qo'shiqlari, beshik alla-yorlari, mehnat qo'shiqlari va cholg'u kuylaridan namunalarni qamrab oluvchi "qardosh ohanglar" nomli o'quv-uslubiy to'plamni shakllantirish taklif etiladi. Unda har bir mavzu bo'yicha kamida ikki-uch xalq vakili ijodidan namuna qiyosiy tarzda joylashtirilishi ko'zda tutiladi.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan asosiy pedagogik yechim uch bosqichli pedagogik modeldir.

Birinchi bosqich - motivatsion-qadriyatli bosqich. Bu bosqichda o'quvchilarga qardosh xalqlarning bir xil mavzudagi musiqa asarlari taqqoslab tinglatiladi. Mazkur g'oya boshlang'ich sinf musiqa ta'limi mavzusidagi mavjud tadqiqotlar bilan ham hamohang keladi [2]. Maqsad o'quvchida qiziqish uyg'otish va musiqiy qardoshlikni hissiy darajada his qildirish. Bu bosqichda "intermusikal muloqot" metodikasining birlamchi bosqichi sifatida "tinglash-taqqoslash kundaligi" texnikasi qo'llaniladi, unda o'quvchi eshitgan asarlaridagi umumiy va farqli jihatlarni qayd etadi.

Ikkinchi bosqich - kognitiv-madaniy bosqich. Bu bosqichda o'quvchilar tinglagan asarlarning tarixiy-madaniy konteksti, janr xususiyatlari, cholg'ular tuzilishi va ijro

an'analari bilan tanishtiriladi, tarixiy-madaniy merosdan foydalanishning millatlararo totuvlik hissini shakllantirishdagi ahamiyati mavzuga oid boshqa tadqiqotlarda ham ko'tarilgan masala hisoblanadi [3]. O'qituvchi rahbarligida kichik guruhlarda "musiqiy pasport" loyihalari tayyorlanadi. Bunda har bir guruh bitta xalqning musiqa madaniyati haqida ma'lumot to'playdi va uni boshqa xalqlar madaniyati bilan qiyoslaydi.

Uchinchi bosqich - faoliyat-ijodiy bosqich. Bu bosqichda o'quvchilar o'zlashtirgan bilim va his-tuyg'ularini amaliy faoliyatda namoyon etadilar. Shuningdek, qardosh xalqlar qo'shiqlaridan tuzilgan qo'shma konsert dasturlarini tayyorlash, o'z ona tilidagi qo'shiqni boshqa xalq ohangi bilan uyg'unlashtirib ijro etish, yoxud qardosh xalqlar musiqasi asosida ijodiy insho-esse yozish kabi topshiriqlar bajariladi. Aynan shu bosqichda o'quvchining millatlararo totuvlik g'oyasi endi passiv bilim emas, balki shaxsiy pozitsiya va qadriyatga aylanganligi namoyon bo'ladi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy-metodik tahlil natijasida quyidagi xulosalarni aytib o’ta olamiz. Bunda qardosh xalqlar musiqa san'ati namunalari o'zining tarixiy-madaniy mushtarakligi, obrazlar va mavzular umumiyligi tufayli o'quvchilarda millatlararo totuvlik g'oyasini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi bo'la oladi, biroq bu salohiyat faqat maqsadli va tizimli metodik ta'minot mavjud bo'lgandagina to'liq ro'yobga chiqadi. Hamda, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan "qiyosiy tinglash - mazmuniy tahlil - ijodiy interpretatsiya" tamoyiliga asoslangan uch bosqichli ya’ni, motivatsion-qadriyatli, kognitiv-madaniy, faoliyat-ijodiy pedagogik model hamda unga tayanuvchi "intermusikal muloqot" metodikasi o'z tuzilishi va mazmuniga ko'ra o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan bajarilishi mumkin bo'lgan yechim hisoblanadi. Ularning empirik samaradorligi esa taklif etilgan tajriba-sinov dasturi asosida alohida tadqiqot bosqichida tekshirilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan diagnostik mezonlar tizimi o'quvchilarda millatlararo totuvlik sifatlarining shakllanish darajasini baholash uchun boshlang'ich vosita sifatida amaliyotga taklif etilishi, so'ngra amaliy sinovlar asosida takomillashtirilishi mumkin. Tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari va musiqa ta'limi muassasalarining o'quv dasturlari, darslik va o'quv-uslubiy

qo'llanmalarini takomillashtirishda, shuningdek pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida dastlabki ishlanma sifatida qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.

2. Boltayev B.R. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida millatlararo totuvlik g'oyalarini shakllantirish // "Musiqa ta'limi va san'atining bugungi globallashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (ASR). - Toshkent, 2024-yil 4-dekabr. DOI: 10.5281/zenodo.14504843

3. Ergasheva U.O. O'quvchilarda millatlararo totuvlik hissini shakllantirishda tarixiy merosdan foydalanish // "XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli" xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari. - Jizzax: Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2022-yil 18-noyabr. - 89-b.

4. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent: Fan va texnika, 2010.

5. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1963. - 128–129-b.

6. To'rayev N., Xudoyberdiyeva N. Musiqiy tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.